



INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Tursinova Zoxida Sharabidinovna

A.Avloniy milliy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqot davlat va xususiy maktablarning ingliz tili o'qituvchilarining o'qitish amaliyoti va pedagogik mahorati hamda o'quvchilarning til bilish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi bo'yicha qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan. Asosiy maqsad davlat va xususiy maktablarda ingliz tili o'qituvchilari tomonidan qo'llaniladigan o'qitish usullari, ularning o'z ustida ishlashko'nikmalarini tahlil qilish va taqqoslash va o'quvchilarda faol ingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirishda ularning samaradorligini baholash.*

Kalit so'zlar: *pedagogik mahorat, baholash, o'z ustidaishlash, hayot davomida o'qish paradifmasi, davlat va xususiy va maktablar.*

KIRISH

Ingliz tili dunyoda xalqaro muloqot sifatida o'z o'rniga ega bo'lib borayotgan bir paytda, mamlakatimizda ham ingliz tilini o'rganish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda ingliz tilini o'qitishni bolalarga 6-7 yoshlardan boshlash masalasi pedagog, filolog hamda ota-onalar orasida muhim vazifa bo'lib qoldi. Chunki, o'quvchi xorijiy tillarni qancha erta boshlasa, shuncha tez va oson o'zlashtiradi. Kichik maktab yoshida bolaning qabul qilish qobiliyati yuqori ekanligini inobatga olgan holda, insonning hayoti davomida xorijiy tillarni o'rganish jarayonida nutq apparatini shakllantirish va nutqiy imkoniyatlarni rivojlantirish mumkin. Ta'lim tizimida o'quvchilarni yuqori sinflardan boshlab ingliz tilini o'rganish darajasi qoniqarl bo'lmaganligi sababli bu jarayon endilikda boshlang'ich sinflardan, ya'ni birinchi sinfdan boshlab, o'qitilmoqda. Shu orqali bolalarda ingliz tiliga bo'lgan qiziqish va layoqatini uyg'otish va til to'sig'ini yengish jarayonini bilim olishning ko'p marta isbotlangan samarali vaqti hisoblangan boshlang'ich sinflardan boshlash orqali ingliz tilini mukammal egallashga o'quvchilarga barcha sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Sinfda o'qish jarayonini tashkil qilish va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ijobiy hamda sog'lom tashkil qilish uchun pedagogik mahorat muhim o'rin egallaydi. Sinfda o'qituvchilar pedagogik mahoratdan turli yo'llar bilan foyda olishlari mumkin. Eng muhimi, kuchli pedagogik mahoratga ega pedagog ta'lim sifatini sifatini yaxshilaydi.

O'qituvchilar uchun eng muhim o'quv fanlaridan biri bu pedagogika yoki o'qitish amaliyotidir. Pedagogika ko'plab mavzularni qamrab oladi, ularning aksariyati o'qitish nazariyasi yoki o'qitishning haqiqiy usullari toifalariga kiradi. Agar ingliz tili o'qituvchisi bo'lishni xohlasa, o'qituvchilar maktabda muntazam ravishda



foydalanadigan ingliz tilining pedagogik mahorati haqida ko'proq o'rganish kerak. Ushbu qismda biz ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik mahoratini, ularni qanday takomillashtirishni va sinfda qanday qo'llashni ko'rib chiqamiz.

Maktab darajasida ingliz tili o'qituvchilarining pedagogik mahoratini tahlil qilish uchun davlat va xususiy muassasalar o'rtasida qiyosiy o'rganishga juda ehtiyoj bor, chunki o'quvchilar xususiy ta'lim muassasalarda ingliz tilida ijodiy va innovatsion ekanligi kuzatilgan, chunki bunday muassasalardagi o'qituvchilarning aksariyati dars jarayonida innovatsion pedagogik mahoratdan foydalanishlari va bu usullar ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir etayotganligi kuzatilmogda.

Tilni erta o'rgatish amaliy samaradorlikka ega bo'lib, uning hayotiy zaruratini belgilab beradi. Ingliz tilini boshlang'ich sinflardan boshlab o'qitishda o'quvchining atrofdagilar bilan munosabatiga ham e'tibor bermoq joizdir. Eng asosiysi o'quvchi ingliz tilida muloqotga kirishar ekan, xato qilib qo'yishdan qo'rqmasligi, bor kuchi va imkoniyatlarini ishga solgan holda o'zining kommunikativ maqsadlarini amalga oshirishi lozim. Xatolar orqali inson o'rganadi. Buni unutmaslik lozim. Xatolar, bu kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lishning yagona vositasidir. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rgatishda bir nechta muammolar mavjud bo'lib, ular: xorijiy tilda muloqot qilish muhitining yo'qligi, axborotning ko'pligi, ayrim o'quvchilarda til o'rganishga intilishning kamligidir.

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarga o'rgangan so'zlarini qo'llash uchun imkon yaratib berish, shuningdek til to'siqlarini olib tashlab, chet tiliga nisbatan hurmat va qiziqishni uyg'otishdir. Bola qanchalik kech til o'rganishni boshlasa, u shunchalik mazkur jarayonning murakkablashib, og'irlashganini sezishi isbotlangan. [6]

ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik mahorat atamasiga ta'rif berishdan avval, mahorat tushunchasini anglab yetishimiz kerak. Mahorat (arabcha so'z bo'lib, mohirlik, ustalik, epchillikni anglatadi) – biror ish, kasb uchun zarur yoki shu sohada orttirilgan ustalik, san'at, mohirlik¹; bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish. [] “Pedagogik ensiklopediya” da pedagogik mahorat tushunchasiga: “O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”, deya ta'rif beriladi. [7]

O'quvchilarga ta'lim berish va ularga ilm sarhadlarini tanishtirish uchun o'qituvchilar maxsus ko'nikma va tajribaga ega bo'lishlari lozim. Ushbu ko'nikmalar o'qitish jarayonining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, bo'lajak haydovchilar jamoat yo'llarida haydashdan oldin haydovchilik guvohnomasini olishlari kerak. Sinfda dars berishdan oldin bo'lajak o'qituvchilar ham davlat dasturida belgilangan aniq talablarni bajarishlari kerak. Aynan oliy ta'lim muassasasida bo'lajak pedagogning



nazariy bilimlari va pedagogik mahoratga doir tushunchalar shakllanib, amaliyotda bu tushunchalar ustida ishlash imkoni bo'ladi.

Mamlakatning qadr-qimmati va salohiyati hamda ta'lim sifati asosan, o'qituvchining ishi va u yetishtirgan salohiyatli o'quvchilar orqali baholanadi (Oleksenko, Dolska, Trynyak, Nesterenko va Korostylov, 2021). Ayrim tadqiqotchilar Duran va Tekke (2020) o'quvchilarning muvaffaqiyatsizliklari uchun birinchi navbatda o'qituvchilar sababchi deb ta'kidladilar. Biroq, Akram, Batool, Husayn, Safdar va Husayn (2021) o'qituvchilarning kamchiliklari o'qituvchilarining javobgarligi emasligini ta'kidlaydilar. O'quvchilarning muvaffaqiyati ko'p narsalar, jumladan maktab, uy, o'qituvchi, talabalar, va boshqalarning mahsuli ekanligini va bu har kimning hissasi yig'indisi ekanligini ta'kidlaydilar. Bundan tashqari, Palanisamy, Paavijhi va Saravanakumar (2020) o'qituvchilar boshqa barcha to'siqlarga qaramay maktablarda o'quvchilarni o'qitishning yaxshiroq usullarini topishga qaror qilishlari kerakligini ta'kidlashadi. O'qituvchilar uchun o'quv jarayonini takomillashtirish va shu sababli o'qituvchilarning o'quv tajribasining muvaffaqiyatini oshirish usullari ustida ishlashi, umuman olganda, lifelong lerning paradigmasiga amal qilishlari kerak bo'ladi.

Pedagogika deganda o'qituvchilarning o'qitish qobiliyatlari va o'quvchilarga turli fan yo'nalishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni o'rganishga yordam beradigan faoliyati tushuniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar o'zlarining kasbiy qobiliyatlarini yangi yondashuvlar orqali dars tashkil qilish, mutaxassislardan (Ustozshogird an'anasi) maslahat so'rash va zamonaviy o'qitish vositalardan foydalanish uzluksiz kasbiy rivojlanishning (CPD) muhim qismidir (Teo, 2019).

Ta'lim jarayonini o'rganish bu butun umr davomida shakllanuvchi va rivoj topguvchi jarayon hisoblanib, uni birinchi marta dars berishdan to malaka sertifikatini muddati tugaguncha davrnigina o'z ichiga oladi deb aytish mumkin emas. Aksariyat o'qituvchilar bu qobiliyat bilan dunyoga kelgan bo'lib, qolganlar butun umr davomida o'z ustida ishlash orqali maxsus bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar. Ta'lim berish haqida dunyoqarash shakllanishida boshlang'ich maktab o'z ta'sirini namoyon etmay qolmaydi. O'qituvchi o'zi uchun qadrli bo'lgan ustoziga to'lig'icha taqlid qiladi va o'zi uchun mos bo'lgan yo'lni topish uchun yangiliklarga intiladi. Umumiy qilib aytganda, o'qituvchi butun umri davomida o'z mahoratini shakllantirib borishi talab etiladi deb aytish mumkin.

O'qituvchi ta'lim berish bilan bog'liq har bir holatga mas'ul hisoblanadi va rahbar sifatida dars jarayonini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi talab etiladi. XX asrning 30-yillarida Kurt Levin tomonidan ilgari surilgan rahbarlikning alohida uslublar tipologiyasi o'zining soddaligi bilan ajralib turadi. Unga ko'ra rahbarlikning avtoritar, demokratik va liberal uslublari farqlanadi. Dastavval bu uslublar biznes boshqaruvi sohasini qamrab olgan bo'lishiga qaramay, keyinchalik ta'lim jarayonida o'qituvchining rahbarlik uslublarini tavsiflashda ham qo'llanila boshlandi. Quyida K.Levin tipologiyasining har bir uslubi qisqacha yoritiladi.



Avtoritar uslubda rahbar hamma vazifalarni o'zi beradi, ijrosini qattiq nazorat ostiga oladi va yo'l qo'yilgan xatolar yuzasidan beshafqat jazolashni amalga oshiradi, o'quvchiga inson sifatida qiziqish bilan qaramaydi. Bunday sharoitda, doimiy nazoratning mavjudligi vazifalarni bajarilishida yuqori ko'rsatkichni taminlaydi. Lekin, psixologik nuqtai nazardan bunday uslubda qator kamchiliklar kuzatiladi. Tashabbuskorlik hamda ijodiy faoliyatga bo'lgan rag'bat kamayadi. O'qituvchi chet tili darsi jarayonida kichik holatni ko'rsatib berish vazifasini topshirdi, ammo o'quvchiga bu vazifa qiyinlik qildi va to'xtab qoldi. Bu vaziyatda yo'naltiruvchi o'qituvchi roli vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartirishga xizmat qiladi. O'qituvchi so'z, gap yoki harakat yordamida til o'rganuvchini jonlantirib yuborishi mumkin, bunda bevosita yordam berishdan qochib turli mantiqiy topishmoqlarga yoki bevosita shu vaziyatning ichiga kirgan holda turtki berishga tayanish samarali hisoblanadi. O'quvchini murakkab holatdan chiqib ketishi uchun tog'ri yo'lni ko'rsatish yo'naltiruvchi o'qituvchining asosiy maqsadi va vazifalaridan hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faolikka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan etuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o'qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib yetishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alzeebaree, Y., & Zebari, I. (2021). What makes an effective EFL teacher: High School Students' Perceptions. *The Asian ESP Journal*.
2. Anwer, F. (2019). Activity-Based Teaching, Student Motivation and Academic Achievement. *Journal of Education and Educational Development*, 6(1), 154-170.
3. Bingimlas, K. (2018). Investigating the level of teachers' Knowledge in Technology, Pedagogy, and Content (TPACK) in Saudi Arabia. *South African Journal of Education*, 38(3).
4. Erkaboyeva N. (2020) Pedagogik mahorat, o'quv qo'llanma
5. Gómez, G. Á., Moya, J. V., & Ricardo, J. E. (2020). Method to measure the formation of pedagogical skills through neutrosophic numbers of unique value. *Revista Asociación Latinoamericana de Ciencias Neutrosóficas*. ISSN 2574-1101, 11, 41-48.
6. Lenneberg, 1967. *Biological foundations of the language*. New York: Wiley
7. Педагогика энциклопедия. (2015) «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти. Тошкент



8. Tursinova Z. Sh. (2023). The pedagogical competence of foreign language teachers. *Journal of Universal Science Research*, 1(3), 205–209. Retrieved from <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/366>

9. Tursinova Z. Sh. (2023). Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilarning pedagogik layoqatini baholash mexanizmlarining metodologik asoslari. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. SJIF 2023 = 6.131